

BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILLARRINI O'QITISH

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi Fakulteti o'qituvchisi

Bobomurodova Gulhayo Ismoil qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Ingliz Filologiyasi Fakulteti talabasi

Mirshokirova Munisa Xurshid qizi

Anatatsiya: *Axborotga boy bo'lgan bugungi XXI aside yosh avlodning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda jahon standartlariga mos kadrlar etib tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa pedagoglarning bilim berish va darslarni o'quvchilarga to'g'ri yetkazib bera olish qobiliyati yuqori baholanadi. Ushbu maqolada ham boshlang'ich sinflarga chet tillarini o'qitish metodlari hamda ularning diqqatini tez jalb qiladigan usullar, o'yin turlari, eskirgan va yangi o'qitish metodlari, o'qitish jarayonida bolada bo'ladigan o'zgarishlar va tilga bo'lgan muhabbatni oshirish hamda maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab chet tilini o'qitishga oid qaror haqida so'z boradi.*

Undan tashqari, bolajonlarimizning sifatli ta'lim olishini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan sa'y-harakatlar, o'qituvchilarning malaka va ko'nikmalarini yanada oshirishga bo'lgan talab, xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchi va bitiruvchilarni maktablarga jalb qilish hamda barcha ki til o'qituvchilarining xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo'lishini ta'minlash haqida ham to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: *Ingliz tili, yangi metodlari, birinchi sinflarda chet tillarini o'qitish, o'yinlar, "ABC song", "Daddy Finger", "Tea Party", xalqaro va milliy sertifikatlar.*

Abstract: *Today is the 21st century, which is the rich information. One of the most important tasks is to increase the interest of the young generation in the language learning and to educate them as personal in accordance with world standards. For this, the ability of pedagogues to import knowledge and deliver lessons to students is highly valued. In this article, the methods of teaching foreign languages to primary classes and methods that quickly attract their attention, types of games, popular and new teaching methods, changes that occur in the child during the teaching process and the language. It is about the decision to increase love and to teach a foreign language in schools starting from primary grades.*

In addition, the efforts to ensure quality education of our children, the demand to further improve the qualifications and skills of teachers, to attract teachers with international and national certificates to the school and all. We will also talk ensuring that foreign language teachers have international and national certificates.

Key words: *The English, new methods, teaching a foreign language in first classes, games, "ABC song", "Daddy Finger", "Tea Party", certificates of international and local.*

Аннотация: *В современном насыщенном информацией 21 века одной из важных задач является повышение интереса молодого поколения к изучению языков и воспитание их как кадров соответствии с мировыми стандартами. Для этого высоко ценится способность педагогов передавать знания и преподавать уроки для студентов. В данной статье рассмотрены методы обучения иностранным языкам в начальных классах и методы, быстро привлекающие их внимание, виды игр, старые и новые методы обучения, изменения в ребенке в процессе обучения и речь идет о решении вопроса повышения любви и приобщения к иностранным языкам в школах, начиная с младших классов.*

Кроме того, усилия, направленные на обеспечение качественного образования наших детей, спрос на дальнейшее повышение квалификации и навыков учителей, учителей и выпускников с международными и национальными сертификатами в школы. Мы также сосредоточим внимание на наборе и обеспечении того, чтобы все преподаватели иностранных языков имеют международные и национальные сертификаты.

Ключевые слова: *Английский язык, новые методики, обучения иностранным языкам в первых классах, игры, “ABC song”, “Daddy Finger”, “Tea Party”, международные и национальные сертификаты.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kundun-kunga ortib bormoqda. Shu sababli yosh avlodga chet tillarini boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitish to'lg'a qo'yildi. Ya'ni maktablarda birinchi sinfdan boshlab ingliz tili fani o'qitila boshlandi. Pedagoglar yosh til o'rganuvchilarda til o'rganishga bo'lgan mehrning ortishi uchun turli xildagi o'qitish usullaridan foydalanishmoqda.

Chet tillarini o'rganishga bo'lgan talabning ortib borishiga sabab kundun-kun ortib va yangilanib borayotgan axborot tizimidir. Ayniqsa, ingliz tilidagi axborotning ko'pligi bu tilni o'rganishga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Undan tashqari, jahonga yurtimizni tanita oladigan kadrlarni tayyorlash uchun ham bu til o'rganish jarayoni juda muhim hisoblanadi.

Aynan shuning uchun ham, Prezidentning 2012-yil 10-dakabrda qabul qilingan “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qaroriga ko'ra, ushbu maqsadlar qatoriga bolajonlarga birinchi sinfdan boshlab chet tillarini o'rgatish vazifasi ham qo'shildi.

Axborot va resurslar ko'p bo'lgan bugungi davrda pedagoglar o'quvchilarning diqqatini o'ziga qaratish uchun yangi metod yoki o'yinlar o'ylab topishga harakat qiladi. Misol uchun, “Qorbo'ron”, “Tea Party”, va “Writing Game” kabi dars o'tish metodlari va o'yinlarini qiziq hamda bolaning diqqatini tez jalb qiladi. “Tea party” metodini oladigan bo'lsak, bunda o'qituvchi biron-bir yegulik keltiradi va dars davomida faol bo'lgan o'quvchiga yoki jamoaga o'lib kelingan yegulikni yutuq sifatida taqdim etadi. Ushbu yegulik har qanday narsa bo'lishi mumkin: meva, shirinlik, ichimlik yoki boshqalar. Bu orqali bola dars davomida faol bo'lishga harakat qiladi va natijada darsni chuqurroq o'zlashtiradi yoki

so'zlarni yaxshiroq yodlab qoladi. "Savol-javob" va "Crossword" kabi o'yinlar esa eskirgan hisoblanib, bolada qiziqish uyg'otish darajasi kamroq bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tez oson eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, shu bilan bir qatorda ularning diqqati bo'linuchan bo'ladi. Mana shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarga til o'rgatish jarayonida asosan urg'uni ko'rgazmali qurollar va turli xildagi o'yinlarga qaratish kerak bo'ladi. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadi-ki, birdan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan o'quvchilarga turli o'yinlar yoki videoroliklar yordamida o'tilgan darslar ancha samaraliroq bo'ladi. Bunga sabab, yosh bolalar harakatli o'yinlar hamda multfilm qahramonlarining so'zlarini eslab qolishga moyil bo'ladi. O'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan qiziqarli va kulgili harakatlarni bola o'zi takrorlasa, bu uning xotirasida yaxshiroq saqlanib qoladi.

Qo'shiqlar ham til o'rganishda katta ro'l o'ynaydi. Misol uchun, "ABC song" qo'shig'i orqali osonlik bilan ingliz tili alifbosini o'rgatish mumkin:

"A, B, C, D, E, F, G, H, I

J, K, L, M, N, O, P, Q, R

S, T, U, V, W, X, Y, Z

Now I know ABCs

Next time won't you sing with me? "

Ushbu qo'shiq Charles Bradlee tomonidan yozilgan bo'lib, qisqa soddaligi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, Dreweeis Band tomonidan etilgan "Daddy Finger" qo'shig'i ham oila a'zolarini ingliz tilida yodlatish uchun juda qulay:

"Daddy finger, daddy finger, Where are you?

Here I am, here I am. How do you do?

Mommy finger, mommy finger, Where are you?

Here I am, here I am. How do you do?.. "

Birinchi sinflar o'qish va yozishni yaxshi bilmaganliklari sababli qo'shiqlar yordamida yodlatish samarali usul. Bundan tashqari, bola doim ko'ziga qiziq va notanish narsani eslab qolishga harakat qiladi va yaxshiroq o'rganishga intiladi. Shu sababli doskadagi har bir ko'rgazmali qurollar o'zgacha uslubda bo'lishini kerak.

Birinchi sinflarga yuqorida ta'kidlangan usulda dars o'tilganda ular 100 tagacha so'zni eslab qilgan bo'lsa, ikkinchi sinfdan yozish ko'nikmasi hamda o'qish qo'shilganda 250 dan ortiq so'zni muloqotda ishlatish ko'nikmasiga ega bo'ldi.

Aksincha, faqatgina ma'ruza va o'yinlarsiz o'tilgan darslar yosh bola uchun zerikarli bo'ladi hamda bolaning diqqati bo'linadi, boshqa narsalar bilan xayoli band bo'la boshlaydi. Natijada, darsni yaxshi o'zlashtirmaydi. O'qishga majburlash, tazyiq o'tkazish va baqirish kabi holatlar bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi va bolada til o'rganishga bo'lgan qiziqish so'na boshlaydi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun esa pedagoglardan yuqori mahorat va tajriba talab etiladi. Yosh avlodga sifatli ta'lim berish maqsadida dars o'tishga layoqatli, tajribali, yosh, shijoatga to'la va yangi uslubdagi metodlarga ega bo'lgan o'qituvchilar saralab olina

boshlandi. O'qituvchilarning dars sifatini o'shish maqsadida har bir maktabdagi ingliz tili xonalari zamonaviy texnologiyalar va jihozlar bilan ta'minlandi. Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chi qish chora tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, 2024-2025-o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa yosh avlodni jahon standartlariga mos ta'lim berib voyaga yetkazish.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchiman, barcha o'lib borilayotgan sa'y-harakatlardan ko'zlangan asosiy maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida til o'rganishga bo'lgan muhabbatni oshirish, xorijiy tillarni osonlik bilan o'rgatish hamda malakali ustozlardan chuqur bilim olishini ta'minlashdir.

Yana shuni ta'kidlash joiz-ki, eski hamda doimiy foydalaniladigan metod va usullardan voz kechish hamda buning o'rniga yangi va zamon talablariga mos bo'lgan usullardan foydalanish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.bt-jurnal.uz "Boshlang'ich sinflarda chet tili, uni o'qitishni jadallashtirish metodikalarini yaratish va joriy etish masalalari". 23.05.2020
2. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarori, 10.12.2012-yildagi PQ-1875-son
3. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentning qarori, 19.05.2021-yildagi PQ-5117-son